

FARS INTERNATIONAL JOURNAL OF EDUCATION, SOCIAL SCIENCE & HUMANITIES



**QARSHI MUHANDISLIK IQTISODIYOT INISTITUTI JISMONIY
TARBIYA KAFEDRASI**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10199594>

Katta o'qituvchisi **Azimxonov Yoqub Boboyevich**

yoqub.65@mail.ru

Harakatli o'yinlarni ta'limiy ahamiyati

Mamlakatimiz pedagoglari o'sib kelayotgan yosh avlodni xayotga tayyorlashda harakatli o'yinlarni ta'limiy ahamiyati kattaligini qayd qiladilar, chunki bola o'yinda rivojlanadi.

O'yin bilan shug'ullanish o'yin qatnashchilarini yangidan-yangi, xis-tuyg'uni, tasavvur etishini, tushunchalarini boyitib boradi.

O'yin pedagoglarimiz qo'llarida bolani xartomonlama rivojlanishiga yordam beradi. Ular uni tasavvur etish tushunchalarini kengaytiradi, kuzatuvchanlini, ziyrakligini, zexin o'tkirlilikni, taxlil qilishni bilishni, ko'rganlarini taqsimlashni va ommalashtirishni rivojlantiradi, shu asosida uni atrofini o'rab turganlar orasida kuzatiladigan xodisalardan xulosa chiqaradilar.

Aloxida sport turlarini harakat tuzilishi bo'yicha (sport o'yinlari, yengil atletika, gimnastika, kurash, suzish va b.q) o'xshash bo'lib, o'yin ta'limiy ahamiyatga egadir. Bunday o'yinlar u yoki boshqa sport turlarida malakalarni hamda avvaldan o'rganilgan texnik va taktik usullarni mustaxkamlash va takomillashtirishga yo'naltirilgan.

Harakatli o'yinda makon (joy) va zamon munosabatlarini to'g'ri baxolash qobiliyatini rivojlantiradi va o'yinda tez-tez o'zgarib turiladigan vaziyatni yuzaga kelishi ta'siriga tez va to'g'ri javob beradi.

Harakatli o'inlar to'g'ri stereotip harakatni tarbiyalash juda muhimdir chunki uni keyin to'g'rilash juda qiyin kechadi.

Joylarda yoz va qish sharoitlarida o'tkaziladigan harakatli o'inlar katta ta'limiy ahamiyatga ega: bolalar oromgoxlarida, dam olish joylarida safarda, sayrga chiqqanda.

Joylarda o'tkaziladigan o'yinlar turistchi, razvetkachi, iz quvarlarga zarur bo'lgan ta'lim mallaklariga yordam beradi.

Kata bo'lmagan buyumlar bilan harakatli o'yinlarni o'tkazish (kichik ko'ptoklar, qopchiqlar, gimnastik tayoqcha, bayroqchalar) teri va mushak-harakat sezgirligini oshiradi, qo'l va barmoq harakat funksiyalarini takomillashtiriga

yordam beradi, u ayniqsa kichik maktab yoshidagi va maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar uchun juda zarurdir.

Bizning mamlakatimizda halq milliy o'yinlari bilan o'kuvchilarning tanishtirib borilishi juda katta ta'limiy ahamiyatga ega. Ular bolalarni millatimizni madaniyati va ularni uruf odatlari bilan tanishtiradilar.

Harakatli o'yinlarda o'yin qatnashchilariga aloxida rollarni bajarishga to'g'ri keladi (o'yinboshi, ochkolarni xisoblaydigan, xakam, xakam yordamchisi, o'yin tashkilotchisi va boshq.). Bu ularda tashkilotchilik hamda malakalarni rivojlantiriga yordam beradi.

Harakatli o'inlar bo'yicha o'tkaziladigan musobaqalar o'yin qatnashchilari musobaqani tashkil qilish va o'yin qoidalari bilan tanishtiradi. Bu bilim va malakalar bolalarni mustaqil ravishda musobaqani o'tkazishga yordam beradi.

Agarda pedagog, tarbiyachi, yetakchi bunga kerakliha diqqat-e'tiborini qaratiladigan bo'lsa, unda o'yinni ta'limiy tomoni yetarli darajada bo'ladi.

Jismoniy sifatlarni tarbiyalashda harakatli o'yinlarni ahamiyati juda katta:

tezlik, chaqqonlik, kuch, chidamlilik, egiluvchanlik shu bilan birga harakatli o'yinlarda jismoniy sifat kompleks ravishda rivojlanadi.

Ko'pchilik harakatli o'yinlarda o'yin qatnashchilaridan tezlikni talab qiladi (tez qochib ketish, quvlab yetish, tovush, ko'rish signaliga bir onda javob berish).

O'yinda doimiy ravishda o'zgarib turadigan vaziyat, o'yin qatnashchilaridan bir harakatdan boshqa harakatga tezda o'tish talab qiladigan, chaqqonlikni tarbiyalashga yordam beradi. Tezkor-kuch bo'yicha yo'nalishdagi o'yinlar kuchni tarbiyalaydi.

Zo'r g'ayrat bilan qilingan harakatni ko'proq kuch va energiyani sarif qilish bilan bog'liq bo'lgan o'yinlar chidamlilikni rivojlantiradi.

Harakat yo'nalishni tez-tez o'zgartirishi bilan bog'liq bo'lgan, o'yinlar egiluvchanlikni rivojlantirishga yordam beradi.

Bolani ma'naviy tarbiyalashda harakatli o'yinlar juda katta ahamiyatga egadir. Harakatli o'yinlar jamoa xarakteridagi deb nomlanadi, shu bilan birga bolalarni jamoa faoliyatiga o'rgatadi. O'yin bolalarda o'rtoqli xissini bir-birini qo'llashni va do'stlarni bir-birlarini harakatlariga javobgarlikni rivojlatiradi. Bola jamoa o'yinida qatnashib komanda manfaatini ko'zlab o'zlarini qiziqishlari bilan fido qiladilar: yaxshi xolatda turgan o'rtog'iga to'pni in'om qilish, "asir"ga tushirgan o'rtog'ini qutqarishga harakat qilish va shunga o'xshash. O'yinda asta-sekin bir-birini harakatini qo'llashni va do'stlik tuyg'usini tarbiyalaydi. Maktabgacha tarbiya bolalaridan to kichik maktab yoshidagi bolalargachan o'yinda faqat o'zlarini harakatlarini o'rtoqlarini harakatlari bilan o'zaro moslashishini talab

qiladi. O'yinda keyinchalik bir-birlarini qo'llash o'rtog'iga yordam berish namoyon bo'ladi. Va nixoyat oxirida o'z komandalari, o'z jamoalariga qiziqishini, bo'syunishini harakatlari bilan o'yin paydo bo'ladi.

O'yinda o'ziga xos bo'lgan harakat bitta o'yinchi boshqasiga bir komanda boshqa komandaga qarshi harakatidir. Shu bilan bog'liq bo'lgan o'yinchilarni oldida, o'z vaqtida xal etishni talab qiladigan turli-tuman vazifalar kelib chiqadi. Buning uchun qisqa vaqt ichida kelib chiqqa vaziyatni baxolashda turli harakatni tanlash va uni bajarish zarur. Bu o'yinchini o'z-o'zini kuchini bilishga yordam beradi.

O'yinchilar o'rtasidagi aniq o'zaro munosabat musobaqalashish, kurashish nafaqat o'zaro xamkorligini, psixologik o'zaro moslashganligini umumiy xarakteri bilan ko'pchilik o'yin harakatlarini, jadallik bilan bajarish xususiyati va kuchlanishni umumiy katta kichikligi, ayrim kechinmalari o'tkirligi bilan aniqlanadi.

O'yin qoidalari ongli intizomini, o'zini tuta bilishni kuchli quzg'alishdan keyin "o'zini qulga olishni" bilish, o'zining birdan egallash jo'sh urib ketishini tarbiyalashga yordam beradi.

Harakatli o'yinlar bolalarni sa'natga va badiylikka tarbiyalashga ham yordam beradi. Bolalarda ijodiy badiylikni birinchi bor namoyon bo'lishi o'yin shaklida qabul qilinadi. Bolalar o'yinida xususan maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalarda ijodiy tasavvur etish katta o'rin egallaydi: oddiy tayoqchani ot qilib minish, velosiped, miltiq va qilich bo'lishi mumkin. G'ola shaklidagi o'yinlar va syujetli mazmuni bilan tashkil qilingan harakatli o'yinlarni tasavvur etishni riojlantiradi.

O'yin atrofidagi muhitni ta'siri, bolalar tushichasida aloxida shaxslarni rolini, rollarni taqsimlash bilan voqialarni ijro etish tushunishida, uni bajarishida bolalar o'zlarining ijodiy tasavvur qilishlarini kiritadilar. Bunday o'yinlar jarayonida ijodiy tasavvur qilish rivojlanadi va takomillashib boradi. Ular sezishni va idrok qilishni rivojlantirishga yordam beradi, atrofni o'rab turgan buyumlarni va uni barcha o'zaro aloqasini paydo bo'lishini qabul qilishni o'rgatadi, uni o'rab turgan atrofidagi muhitni bilish va bolalarga yangi taassurot yaratadi, kuzatuvchilikka shuningdek mantiqiy fikrlashga o'rgatadi.

Musiqqa jo'rliigi bilan tashkil qilinadigan o'yinlar bolalarda musiqqa qobiliyatini rivojlantiradi. Pedagog bolalarda musiqqa qobiliyatini tarbiyalashda o'yin metodidan foydalanadi: musiqqa sadolari ostida harakat bilan o'tkaziladigan o'yinlar musiqqa shakllarini va xarakterini yaxshi egallashga yordam beradi.

Musiqaqa oid o'yinlarda bola o'zining birinchi raqsga oid qobiliyatini namoyon qiladi.

Bola o'yinda o'zining barcha shaxsiy sifatlarini va xususiyatlari ma'lum bo'ladi. O'yin jarayonida shaxsiy o'ziga xos xususiyatlarini namoyon bo'lishi har bir bolani yaxshi bilishga yordam beradi va bizga kerakli yo'nalishda rivojlantirishga ta'sir ko'rsatadi. Faqatgina bitta faoliyat, o'yinday ravshan va o'quvchini shaxsiy xarakter chiziqlarini har tomonlama ochib bermaydi. Bolani o'yinga berilib yoki qiziqib ketishini o'zining har tomonlama xarakteridan topib oladi. Sinfida bolalarga aralashmaydigan bola o'yinda o'zini mutloqo boshqacha namoyon qiladi. Bular barchasi g'oyat muhim bo'lganligi uchun bolalarga to'g'ri shaxsiy yondoshish kerak. Harakatli o'yinlar "Alpomish" va "Barchinoy" test meyorlarini topshirish uchun zarur bo'lgan, u yoki bu sifat va malakalarni takomillashtirishga yordam beradi.

Estetik xususiyat va uni anglash inson ruhiyatida o'ziga xos, chuqur ijobiy ruhiy o'zgarishlarni vujudga keltiradigan estetik holat. Harakatli o'yinlarini bajarish jarayonida estetik zavqni idrok qilish va o'ziga singdirishni, go'zallik, nafosat, ma'nodorlik, qad-qomat, liboslar bejirimligi, o'z atrofidagi barcha narsalarni tushunish, to'g'ri qadrlashni rivojlantirish, estetikaga va o'z xulq-atvoriga gard yuqtirmaslik estetik xususiyatlarning namoyon bo'lishining dastlabki ko'rinishidir.

V.V.Gorinevskiy harakatli o'yinlar nazariyasi va metodikasiga jiddiy talablar qo'yadi. Bu o'qituvchidan o'zi ham astoydil hayajonlanib qatnashishi, estetik harakatlar qilinishi, har bir bolaga idiviudal tarzda yondashishni, o'yin qoidalariga aniq rioya etilishini talab qiladi. U o'quvchilar uchun maqbul bo'lgan musobaqa elementlarini o'yinga kirish maqsadga muvofiq bo'lishi to'g'risidagi masalani o'rta qo'yadi, lekin bunda, albatta qattiq hayajonlanishga, baqirib chaqirishga, biri-biriga nisbatan nodo'stlik kayfiyatlariga paydo bo'lishiga yo'l qo'yib bo'lmaydi.

O'qituvchi tamonidan lozim darajada rahbarlik qilib turilgan vaqtda, Gorinevskiy ta'kidlab o'tganidek, o'yinga hayajon elementlarini kiritish hamda ulardan o'quvchilarni ijobiy ma'naviy va estetik fazilatlarini tarbiyalash maqsadida foydalanish mumkin.

Bolalarni o'yin faoliyatida ikkita juda muhim obyektiv bir-biri bilan bog'langan mezonlar mavjud: bir tomondan bolalar amaliy faoliyatga kirishib jismoniy rivojlanishida, mustaqil harakat qilishga odatlanadilar. Ikkinchi tomondan - shu faoliyat ma'naviy va nafosat ozuqa olishib qanoat hosil qilishadi.

Hatakati o'yinlarni kuzatish shunday xulosaga olib keladiki, ular har qanday yoshdagi bolalar uchun chindan ham, ifodali, obrazli hamda qulaydir. Ushbu o'yinlar jarayonida o'quvchilarning estetik olami boyiydi, tafakkurining ishlashi, ijodiy fikrlashi faollashadi, butun ruhiy jarayoni ayniqsa, ehtiyoj mo'ljallari, vaziyatli reaksiyalari va boshqa qobiliyatlari takomillashadi. Biroq o'quvchilar tafakkurini kengaytirish hamda mustaqil harakatini rivojlantirishga ko'maklashadigan bilishga doir materiallar bo'lgan, muayyan o'yinli topshiriqlarga qurilgan o'yinlarni taklif etish maqsadga muvofiqdir. Shunday o'yinlarni tanlash lozimki, ularda (harakat estetikasi, ishtirokchilarning munosabatlari), quvonch va qoniqish baxsh etuvchi maqsadga yo'naltirilganlik jihatlari yaqqol ifodalangan bo'lsin.

Ta'kidlab o'tilganidek, harakatli o'yinlardagi estetik xususiyatni anglash o'zo'zidan paydo bo'lib, rivojlanadigan «mikroorganizm» emas va ayni paytda birdan to'xtab qoladigan «mexanizm» ham emas. U sekin-asta o'quvchilar tomonidan orttirilgan hayotiy tajribalar, ko'nikmalar, bilimlar orqali shakllanib boradi. Ikkinchidan, harakatli o'yinlarning estetik xususiyatlarni anglash ijtimoiy taraqqiyotning muayyan jabhalarida aniq maqsadlarga yo'naltirilgan faoliyat sifatida ish olib boradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Насриддинов Ф.Н., Қосимов А.Ш. Ўзбек халқ миллий ўйинлари. 1-тўплам. – Т.: 1998. – Б. 27.
2. Nigmanov B.B, Xo'jaev F, Raximqulov K.D "Sport o'yinlari va uni o'qitish metodikasi" o'quv qo'llanma Ilm-Ziyo nashriyoti Toshkent 2011 y.
3. Раҳимқулов К. Миллий ҳаракатли ўйинлар. – Т.: ЎзДЖТИ, 2007. – Б. 49-62.
4. Raximqulov K.D. "Milliy harakatli o'yinlari" O'quv qo'llanma T.: 2012 y.
5. Салимов Ғ. Миллий ҳаракатли ўйинлар асосида 7-10 ёшли ўқувчиларнинг жисмоний сифатларини ривожлантириш самарадорлиги: Дис. ... пед. фан. ном. – Т.: ЎзДЖТИ, 2007. – 147 б.
6. Safarov O. O'zbek xalq o'yinlari. – Т. "Sharq", 2013 y. 176 b.